

**SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRARISH INVESTITSIYALARNI  
JALB QILISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING DOLZARB  
MASALALARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)**

**Urakov Tuxtamurat Muxiddinovich**

*Navoiy innovatsiyalar universiteti  
Idtisodiyot va axborot texnologiyalari  
kafedrasi dotsenti*

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

*Received: 05.06.2026*

*Revised: 06.06.2026*

*Accepted: 07.06.2026*

**KALIT SO'ZLAR:**

*ishlab chiqarish  
investitsiyalari, sanoat  
korxonasi, investitsiya  
siyosati, iqtisodiy  
samaradorlik,  
boshqaruv modeli.*

*Maqolada sanoat korxonalarida ishlab chiqarish investitsiyalarini jalb qilish va ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha dolzarb ilmiy-amaliy masalalar keng qamrovli tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda dastlab investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati, ularning korxonalarining rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashdagi strategik ahamiyati nazariy asoslar bilan chuqur asoslangan holda yoritilgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish investitsiyalarining korxonalaridagi texnologik yangilanish, innovatsiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi ta'siri xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar, shuningdek, ilg'or xalqaro tajribalar misolida atroflicha ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, sanoat korxonalarida investitsiya loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish mexanizmlari, investitsiyalarning samaradorligini ilmiy baholash metodlari, iqtisodiy-matematik modellar va prognozlash usullaridan foydalanish imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan.*

**KIRISH.**

Bugungi kunda ishlab chiqarish investitsiyalarini jalb etish va ulardan samarali foydalanish sanoat korxonalarida oldida turgan eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki investitsiyalar nafaqat ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilash va ishlab chiqarish hajmlarini oshirish imkonini beradi, balki korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlarda ham sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini

rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, xususan, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni keng joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish vazifalari belgilab berilgan [1].

Ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqarish investitsiyalari iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri sifatida ta'riflanadi. Jumladan, Nobel mukofoti laureati Pol Romer innovatsiya va texnologik yangilanishlarni iqtisodiy o'sishning hal qiluvchi omili deb hisoblaydi [2]. Shuningdek, ishlab chiqarish investitsiyalarini jalb qilishda samaradorlikni baholash masalalari ham muhim ilmiy tadqiqotlar obyekti hisoblanadi. Xususan, ishlab chiqarish investitsiyalari samaradorligini baholashda iqtisodiy matematik modellardan keng foydalaniladi [3]. Bundan tashqari, investitsiya loyihalarini boshqarishda xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy amaliyotga moslashtirish investitsiya jarayonlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi [4].

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining ishlab chiqarish investitsiyalarini jalb qilish mexanizmlari, investitsiyalar samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik asoslari keng tahlil qilinadi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligi ishlab chiqarish investitsiyalarini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish hamda korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Investitsiyalarni boshqarish, xususan ishlab chiqarish sohasidagi investitsiya faoliyatini ilmiy asoslash va samaradorligini oshirish mavzusi ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi-olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Quyida ushbu mavzuga oid tanlangan ilmiy manbalar kengaytirilgan holda tahlil qilinadi.

Investitsiyalarni boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan Asvat Damodaran investitsiyalar samaradorligini baholash uchun iqtisodiy-matematik modellar va uslublardan foydalanishni taklif etadi. U ishlab chiqarish investitsiyalarining qiymatini aniqlash va prognozlashga alohida e'tibor qaratgan[5].

Pol Romer o'zining texnologik o'zgarishlar nazariyasida ishlab chiqarish investitsiyalarini innovatsion faoliyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlab, iqtisodiy rivojlanishning endogen modellari asosida tahlil qiladi. Uning fikriga ko'ra, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar innovatsion imkoniyatlarni oshiradi [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlarida ishlab chiqarish korxonalarida modernizatsiya va investitsion faollikni rag'batlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan. Ushbu farmonlarda ishlab chiqarishni rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirishda investitsiya siyosatining o'zni alohida qayd etilgan [7].

Rossiyalik iqtisodchi olim T.V. Igolnikov investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan

metodlarni ishlab chiqqan. Uning ilmiy ishlarida ishlab chiqarish investitsiyalari loyihalarining moliyaviy samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflar shakllantirilgan [8].

Xalqaro iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda rivojlanayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekiston sharoitida investitsiya jarayonlarini takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash chora tadbirlari atroflicha tahlil qilinadi. Bu manbada investitsiya faoliyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro standartlar va tavsiyalar berilgan [9]. Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion nazariyasini yaratgan Jozef Shumpeter ishlab chiqarish investitsiyalarining korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi rolini innovatsion faoliyat orqali yoritib bergan. Shumpeterning fikricha, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o'sish va texnologik rivojlanish uchun asosiy omildir [10].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, sanoat korxonalarining investitsiya siyosatini samarali amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish zarurligi asoslangan. Ushbu mexanizmlar investitsiyalarning jalb qilinishini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi [11]. Uilyam Sharpe investitsiya samaradorligini moliyaviy risklar nuqtai nazaridan baholashning kapital aktivlar baholash modeli (CAPM) asosini yaratgan. Sharpe tomonidan ishlab chiqilgan model investitsiya qarorlarini qabul qilishda keng qo'llaniladi va ishlab chiqarish korxonalarida investitsion risklarni boshqarishda foydali hisoblanadi [12].

Manfred Perlman va Ralf Li «Industrial Economics: Issues and Perspectives» kitobida sanoat korxonalarida investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va samaradorligini baholashning metodologik jihatlarini keng yoritib bergan. Mualliflar sanoat korxonalarida investitsiya faoliyatini nazariy jihatdan asoslashga e'tibor qaratgan [13].

Amartya Sen iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy jihatlari bilan investitsiyalarni bog'lab, inson kapitaliga investitsiyalar iqtisodiy samaradorlikning asosiy omili ekanligini ilmiy asoslagan. Uning qarashlariga ko'ra, ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyalar korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi [14].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes sub'yektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Navoiy viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ekspert so'rovlari natijalari keng qo'llanildi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari asosida shakllantiriladi:


Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indeksarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo'limda Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida, Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar va uning tumanlari misolida 2020-2025 yillar oralig'ida ishlab chiqarish investitsiyalari hajmining o'zgarish dinamikasi, jalb etilgan investitsiyalarning tarmoq kesimidagi taqsimlanishi, ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar va amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi har tomonlama, chuqur tahlil qilinadi. Jumladan, 2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra viloyatda 3 689 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 604 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 23,0 % i) boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 558 tasi (21,3 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 204 tasi (7,8 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyatga, 170 tasi (6,5 %) mebel ishlab chiqarishga va 156 tasi (6,0 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

**1-jadval**

**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni.(1-oktabr holatiga ko'ra)**



Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatgichlari hududlar kesimida. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalaridan 137 300,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.

**2-jadval.**

**Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatgichlari hududlar kesimida**


|                        | Hajmi, mlrd so'm | Fizik hajm indeksi, %<br>da |
|------------------------|------------------|-----------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>137 300,0</b> | <b>108,5</b>                |
| Navoiy sh.             | 117 860,7        | 108,7                       |
| Zarafshon sh.          | 677,0            | 103,3                       |
| G'ozg'on sh.           | 178,3            | 108,7                       |
| <b>tumanlar:</b>       |                  |                             |
| Karmana tumani         | 9 527,3          | 102,4                       |
| Konimex tumani         | 681,4            | 102,8                       |
| Qiziltepa tumani       | 1 331,2          | 105,1                       |
| Navbahor tumani        | 941,8            | 105,3                       |
| Nurota tumani          | 430,3            | 105,3                       |
| Tomdi tumani           | 69,6             | 104,8                       |
| Uchquduq tumani        | 348,5            | 102,4                       |
| Xatirchi tumani        | 1 268,4          | 87,6                        |

Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 124 631,2 ming so‘m tashkil etdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (698 885,4 ming so‘m), Karmana tumanida (66 666,4 ming so‘m) hamda G‘ozg‘on shahrida (18 983,7 ming so‘m) aholi jon boshiga ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati 106,6 % ni tashkil etgan bo‘lsa, G‘ozg‘on shahrida (107,4 %), Tomdi tumanida (106,1 %), Navoiy shahrida (105,3 %) hamda Navbahor va Nurota tumanlarida (103,9 %) yuqori natija qayd etilmoqda.

**3-jadval**


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari. 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, 113 995,0 mlrd so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %)ni tashkil etgan holda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 17 367,5 mlrd so‘m (12,7 %), elektr gaz bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 5 632,0 mlrd so‘m (4,1 %) hamda suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilishda 305,5 mlrd so‘m (0,2 %) ni tashkil etdi.

**4-jadval**

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish ajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi (2025-yilning yanvar-sentabr oylarida)**



**4-jadval**

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatda 26,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2024-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 50,3 % ga oshgan), 68,5 tonna tvorog va tvorogdan mahsulotlar (1,8 % ga ko'paygan), 1 697,5 ming tonna sement (9,0 % ga kamaygan) hamda 390,2 ming m<sup>3</sup> azot (3,1 m ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

| Sanoat mahsulotlari  | 2023-yil yanvar-sentabr* | 2024-yil yanvar-sentabr* | 2025-yil yanvar-sentabr |
|--|--------------------------|--------------------------|-------------------------|
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t                        | 19,2                     | 17,5                     | 26,3                    |
| Tvorog va vorogdan mahsulotlar, tonna                        | 65,1                     | 67,3                     | 68,5                    |
| Yogurt, tonna  | 17,8                     | 18,9                     | 29,5                    |
| Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj futbolbalar, ming d | 1 840,4                  | 2 203,8                  | 1 940,5                 |
| Azot, ming m <sup>3</sup>                                    | 78,7                     | 124,6                    | 390,2                   |
| Argo n, ming m <sup>3</sup>                                  | 156,3                    | 995,5                    | 1 406,6                 |

|   |         |         |         |
|---|---------|---------|---------|
| Mochevina (karbamid)<br>ming t azot                                 | 160,5   | 196,1   | 204,6   |
| Plastmassadan qattiq<br>quvurlar, trubkalar va<br>shlanglar, ming t | 5,8     | 8,6     | 10,4    |
| Portlandsement, ming t  | 2 219,3 | 1 865,0 | 1 697,5 |
| Soʻndirilmagan va<br>soʻndirilgan ohak,<br>ming t                   | 64,5    | 246,2   | 248,4   |


*\*2023-2024-yillarning yanvar-sentabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 81,4 % (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,2 % (2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 0,3 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 7,1 % (8,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 85,0 % (82,7 %), quyi texnologiyali 7,8 % (8,5 %)ni tashkil etgan.




**Yuqori texnologiyalar Oʻrta quyi texnologiyali Oʻrta quyi texnologiyalar Quyi texnologiyalar**

■ 2024 yil ■ 2025 yil

**Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi.** Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 186,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,9

% ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,9 % ni tashkil etgan.



— Hajmi, mlrd so'mda ■ Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %da

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi: Navoiy viloyatida ishlab chiqarish investitsiyalarining umumiy hajmi 2020-2025 yillar mobaynida barqaror ravishda oshib bordi.

1. Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan 3 689 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 604 tasi (23,0 % i), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 558 tasi (21,3 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, to'g'ri kelmoqda.

Bunday barqaror o'sish, viloyatda davlat tomonidan yaratilgan qulay investitsion muhit hamda mahalliy korxonalarining investitsiya faolligi bilan bog'liq.

2. Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida korxonalari tomonidan 137 300,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan fizik hajmi indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.

3. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish. 124 631,2 ming so'm tashkil etdi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy shahrida (698 885,4 ming so'm), Karmana tumanida (66 666,4 ming so'm) hamda G'ozg'on shahrida (18 983,027 ming so'm) aholi jon boshiga ko'rsatkichlari sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, G'ozg'on shahrida (107,4 %), Tomdi tumanida (106,1 %), Navoiy shahrida (105,3 %) hamda Navbahor va Nurota tumanlarida (103,9 %) yuqori

natija qayd etilmoqda. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2021 yilda 52 752.8 ming soʻmdan 2025 yil holatiga 124 631.2 ming soʻmga yaʼni 71 878.4 ming soʻm 57.7 % oshgan. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, 113 995,0 mlrd soʻmni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,0 %)ni tashkil etgan.

4. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12 186,2 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 7,9 % ni tashkil etgan.

Oʻzbekiston sanoatida texnologik yangilanish, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonlari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, sanoat ishlab chiqarishining samaradorligi, bu ilmiy-texnik yutuqlar, boshqaruv madaniyati, malakali kadrlar va innovatsion yondashuvlarning uygʻunligi orqali taʼminlanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Qarori. – Toshkent: Adliya vazirligi, 2022 yil, №PQ-184.
2. Romer, Paul. Endogenous Technological Change. – Journal of Political Economy, Vol. 98, No. 5, Part 2, 1990. – The University of Chicago Press. – pp. 71 102. h
3. Damodaran, Aswath. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – 3rd edition. – Wiley Finance, 2012. – 992 pages.
4. OECD Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2022. – OECD Publishing, Paris, 2022. – 180 pages.
5. Damodaran, Aswath. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley Finance, 2012.
6. Romer, Paul. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, Vol. 98, 1990.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-184-son qarori. Adliya vazirligi, 2022.
8. Igolnikov T.V. Effektivnost investitsionnyx proektov. Moskva: Finansy i statistika, 2016.
9. OECD Investment Policy Reviews: Uzbekistan 2022. OECD Publishing, 2022.
10. Schumpeter, J.A. Theory of Economic Development. Routledge, 2017.
11. Mahmudov A. Investitsiya faoliyatini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik. Toshkent, "Fan va texnologiyalar", 2021.
12. Sharpe, William F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium. The Journal of Finance, 1964.

13. Perlman, M., Li, R. Industrial Economics: Issues and Perspectives. Palgrave Macmillan, 2012.

14. Sen, Amartya. Development as Freedom. Oxford University Press, 1999.

15. Qorabayev Sh.A. Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish investitsiyalarni jalb etish va samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari “Innovations in Science and Technologies” ИЛМИЙ-ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛИ ISSN: 3030-3451. 2 / 2025 йил. www.innoist.uz

16. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi 20.10.2025 y. Sanoat va energetika statistikasi bo'limi.

